O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT TO’QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

UDK: 687.023:391(575.16+575.14) Qo’lyozma huquqida

TALIPOVA ZIYODA RUSTAMOVNA

# O'ZBEKISTON VOHALARI BO'YICHA ETNOGRAFIK LIBOSLARI BICHIMLARINI TIZIMLASHTIRISH (BUXORO - SAMARQAND MINTAQASI)

5A150901 – Dizayn (kostyum dizayni)

Magistrlik

Akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

t.f.n., prof. X.X Kamilova

Ilmiy maslaxatchi:

Prof. Z.I Rahimova

Toshkent-2015

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT TO’QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

Fakultet_Yengil sanoat texnologiyasi
Kafedra_Kostyum dizayni
O’quv yili_2013-2015

Magistratura talabasi_Talipova Z.R
Ilmiy rahbar_Kamilova X.X
Mutaxassisligi_5A50901

O'zbekiston vohalari bo'yicha etnografik liboslari bichimlarini tizimlashtirish

(Buxoro - Samarqand mintaqasi)

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

**- Mavzuning dolzarbligi:** Buxoro va Samarqand qadimiy an’anaviy milliy liboslarini o’rganish bosqichlarini o’rganish va tahlil va qilish. Bugungi kunda milliy liboslarni qayta tiklashdan iboratdir;

**- Ishning maqsadi va vazifalari:** Buxoro va Samarqand qadimiy an’anaviy milliy liboslarini o’rganish, konstruksiya – texnologiyasini ishlab chiqish va tahlil qilish;

**-Tadqiqot ob’ekti va predmeti:** Tadqiqot ob’ekti tarixiy Buxoro va Samarqand an’anaviy milliy liboslarini na’munalari, rasmlar, yozma man’balar va muzey materiallarini o’rganish asosida keltirilgan ma’lumotlardan olingan. Tadqiqot predmeti esa o’rganilgan materiallarni an’anaviy milliy liboslar konstruksiyasini ishlab chiqish;

**- Tadqiqot natijalarining ilmiy jixatdan yangilik darajasi:** reja asosida ilmiy adabiyotlar o’rganildi va olingan ma’lumotlar tegishli tarzda tasniflandi, muzey eksponatlari bilan taqqoslanib o’rganildi;

**-Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tatbiqi:** Buxoro va Samarqand an’anaviy milliy liboslarini to’plamini yaratish;

**- Ish tuzilishi va tarkibi:** Dissertatsiya kirish, 3 bob, paragraf, xulosa, ilova va adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 80 bet.

**- Bajarilgan ishning asosiy natijalari:** Magistrlik dessertatsiyaning bajarilishi o’zbek milliy liboslarining tadqiq etilishi bilan bog’liq bo’lib unda o’zbek milliy liboslarining kelib chiqish va vazifalarini o’rganildi.

**- Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi:** O’zbek an’anaviy milliy kiyimlari bichimi asosida milliy liboslar yaratildi.

Ilmiy rahbar: t.f.n.,prof. X.X Kamilova _____________

Magistratura talabasi: Z.R Talipova _____________

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**
**TASHKENT INSTITUTE OF TEXTILE AND LIGHT INDUSTRY**


Faculty: "Technology of light industry"
Department:"Costume design"
Study year: 2013-2015

Student of master course: Talipova Z.R
Scientific researcher: c.t.sc.prof.X.X.Kamilova
Specialty: 5A150901


Sytematization of ethnographic dresses Patterson regions of Uzbekistan
( Bukhara and Samarkand regions)

**ANNOTATION OF MASTER'S DISSERTATION**


**-Actuality of the theme**:Studying and analyzing the studying levels of traditional national dress of Tashkent and Fergana.Nowadays renew of national dresses is an actual.

**-Aim and tasks of the research**: studying the traditional national dresses of Tashkent and Fergana,analyzing and creating the construction-technology.

**-Object and subject of the research**: Object: Information was given on the base of studying the museum materials and written sources, samples of traditional national dresses of Tashkent and Fergana. Subject is creating the traditional national dresses construction of studied materials.

**-Novelty of the work**:scientific literature on plan was studied, taken information was analyzed and the dresses were compared with museum pieces and studied.

**-Significance of the research**:Creating the traditional national dresses collection of Tashkent and Fergana,

**-Structure of the work**:Dissertation work consists of introduction,three chapters,list of literature and offers.Size of the work is 80 pages.

**-Results of the work:**Master's dissertation work is connected with researching the uzbek national dresses and it was studied their origin and tasks.

**-Conclusion and offers**:National dresses were created on the base of uzbek national dresses pattern.


Scientific researcher: c.t.sc.prof. X.X.Kamilova ________________

Student of master course: Z. R. Talipova ________________

## MUNDARIJA

**Kirish**……………………………………………………………………1

**I–bob. Adaboyotlar sharhi**

1.1. Buxoro va Samarqand tarixi, geografik tuzilishi………………………......2

1.2. Buxoro va Samarqand milliy madaniyati (urf-odati, marosimlari, kiyimlari va kiyinish madaniyati)…………………………………………………..19

**II–bob. Tajriba sinov qisimi**

2.1. Buxoro va Samarqand an'anaviy milliy liboslarining muzeylar bo'yicha taxlili………………………………………………………………………21

2.2. Buxoro va Samarqand an'anaviy milliy liboslarning umumiy ko'rinishi, ko'p qavatliligi, ishlatiladigan matolari va bezaklari…………………………24

2.3. Buxoro va Samarqand an'anaviy milliy liboslari bichimlarini tizimlashtirish va tikish texnologiyasi…………………………………………………......37

**III–bob. Loyiha qisimi**

3.1. Tadqiqod qismi……………………………………………..………...42

3.2. Etno uslubini rivojlanishi……………………………………..….........58

3.3. Konstruktiv qism…………………………………..……………......59

3.4. Dizayn qismi…………………………………………………………..75

**Xulosa**...........................................................................................................81

**Adabiyotlar ro'yxati**…………………………………………………83

**Ilova**

## Kirish

**Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi:** O'zbek milliy liboslari qadim zamonlardan beri maqtovlarga sazovor bo'lib kelgan va o'zbek madaniyati rivojlanayotgan tarixiy sharoitda unga alohida ahamiyat berilgan. Ko'p asrlar davomida o'zbek xalqining liboslari boy ko'rinishini va turli bezaklarini, an'analarini yaratilib kelingan.

Buxoro va Samarqand milliy liboslari san'atining an'anaviy prinsiplari asosini ornamentalizm, yoyiqlik, muayyan uslublarga moyil tasvirning shatrliligi va beqiyos ranglar mutanosibligi tashkil qiladi. Bunda hamisha ochiq, bir-biriga zid ranglar ham favqulodda uyg'un ishlatiladi.

Xalq yaratgan hunarmandchilik turlarining bunday yuksak san'at darajasiga erishuvi, o'tmishdan hozirgacha uzluksiz davom etib kelayotgan izlanishlar samarasidir bunga tarix guvohlik beradi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov “Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, manaviyati orqali bilamiz, tarixning tag tomirigacha nazar tashlaymiz”–deb bejiz uqtirmagan edi [1].

Xalqning badiy an'analari nihoyatda barqaror: xalqning turmush sharoiti bilan birga o'zgarib, boyib boradi, lekin o'z milliy asosini saqlab qoladi. Kiyimlarning yangi vazifasi va talablarga binoan rivojlanishi uning rivojini ta'minlovchi asosiy omildir. Bizning davrimizda eng qdimiy liboslar bichimi bilan zamonaviy liboslar bichimi bir-biriga singib uyg'unlashib ketgan.

**Tadqiqotning ob’ekti va predmetining belgilanishi:** Tadqiqot ob’ekti tarixiy Buxoro va Samarqand an’anaviy milliy liboslarini na’munalari, rasmlar, yozma man’balar va muzey materiallarini o’rganish asosida keltirilgan ma’lumotlardan olingan. Tadqiqot predmeti esa o’rganilgan materiallarni an’anaviy milliy liboslar konstruksiyasini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari:** Tadqiqot ishining maqsadi o’zbek xalqining an’anaviy milliy kiyimlarini o’rganish va yo’qolib ketayotgan xalq merosini qayta tiklash. Bunda asosan kitob va muzeydagi tarixiy liboslarni

o’rganib chiqish, an’anaviy milliy kiyimlarni bichish texnologiyasi organib, milliy kiyimlar konstruksiyasini is

hlab chiqish va an’anaviy milliy bichim rivojlanib va shakllanib borishiga ta’sir etgan omillarni o’rganib tahlil etishdan iboratdir.

**Tadqiqodning ilmiy yangiligi:** reja asosida ilmiy adabiyotlar o’rganildi va olingan ma’lumotlar tegishli tarzda tasniflandi, muzey eksponatlari bilan taqqoslanib o’rganildi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:** Buxoro va Samarqand o’zbeklari milliy liboslarini mavjud ilmiy adabiyotlar va saqlanib qolgan eksponatlardan o’rganib to’laroq tasavvurga ega bo’lish. Hamda etnografik liboslarni ko’rsatib berish va bunda yo’qolib ketgan milliy liboslarni qayta tiklash maqsadga muvofiq.

**Mavzu bo’yicha qisqacha adabiyotlar taxlili:** Milliylik san’atning har bir soxasida kuzatilib kelinadiki, ular tadqiqotning nazariy asoslarini boyitishga xizmat qiladi. O’zbek milliy kiyimlari to’g’risida bir qancha adabiyotlarda keltirib o’tilgan. Xususan, T. Abdullaev, Muxammad Narshaxi, C. Xasanova, P.A Goncharova, G. Xasanboeva, D. Jabborova, B. Chursina kabi mualliflarning nashrlaridan foydalanildi. Shu bilan bir qatorda Markaziy Osiyo tarixini o’z ichiga olgan adabiyotlarda ayrim ma’lumotlar uchraydi, bular : Tolstov, A. Musaeva va boshqalar. Shu bilan birga eng katta manbalardan biri muzey eksponatlari hamdir. Mavzuni yoritishda “Mohi - Xosa” Amaliy san’at muzeyi, Buxoro Davlat badiy-me’moriy muzey-qo‘riqxonasi, Fayzulla Xadjaev muzeyi, Samarqand O‘lkashunoslik muzeyi, Samarqand Davlat birlashgan tarixiy-me’moriy va badiy muzeyi-qo‘riqxonasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat san’at muzeyi, O‘zbekiston davlat tarix muzeyi, O‘zbekiston Amaliy san’at muzeyi fondi eksponatlari o’rganildi.

**Tadqiqotda qo’llanilgan uslublarning qisqacha tahlili:** statitik tahlil va ishlov berish usullaridan foydalanildi. Bunda adabiyotlar o’rganildi va yechilmagan muommolarni izlash maqsadida muezy fondlari o’rganildi. Olingan natijalar umumlashtirib taxlil qilindi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:** Mavzu atroflicha o'rganilib, xulosa chiqarildi. Mavzuning dolzarbli va milliy kiyimlarning rekonstruksiyalash, qayta tiklash asosiy vazifalardan biri ekanligi asoslandi.

**Dissertatsiya tarkibining qisqacha tasnifi:** dissertatsiya kirish, assiy qism 3 bob, xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 80 betni tashkil etadi.

# I – bob. Adaboyotlar sharhi

## 1.1. Buxoro va Samarqand tarixi, geografik tuzilishi

Buxoro shahri sharqning mashhur qadimiy shaharlaridan biri. Arxeologik ma’lumotlarga ko’ra, Buxoroga miloddan avvlgi I ming yillik o’rtalari yoki miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid ilk madaniy qatlamlar Buxoro arki va shahristoni hududidagi qazishmalar va stratigrafik quduqlarda aniqlangan. Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan Buxoro shahri va uning atrofidagi yerlar qadimda nihoyatda xushmanzara-hayvonot va o’simlik dunyosi betakror, ko’l va oqar suvlarga boy bo’lgan. Buxoro nomi ilk o’rta asr Xitoy manbalarida turlicha (An, Ansi, Ango, Buxo, Fuxo, Puxuala va boshqalar) atalgan. Bu atamalardan avvalgi uchtasi Buxoro shahrining xitoycha nomlari bo’lib, qolgani “Buxoro” so’zining xitoy tilidagi talaffuzidir. O’rta asr arab manbalarida esa Buxoro shahri Numijkat, Navmichak, Bumichkat(Yangi qo’rg’on), AlMadina assufriyya (Mis shahar), Madinat attujjor (Savdogarlar shahri), Foxira (Faxrli shahar) kabi nomlar bilan tilga olingan [2].

“Buxoro” atamasi sanskritcha “vixora” so’zning turkmo’g’ulcha shakli-“buxoro” ( ibodatxona ) dan kelib chiqqan deb taxmin qilingan. Keyingi tadqiqotlarda bu atama sug’diycha “bug” yoki “bag” (tangri) hamda “oro” (jamol) so’zlaridan iborat bo’lib, “tangri jamoli” degan fikr ilgari surilmoqda.

Buxoro shahrining islomga qadar bo’lgan tarixi ma’lumotlar miloddan avvalgi VII -VIII asrlar bilan chegaralanadi. Miloddan avvalgi VII - asrlarda Ahmoniylarga boshqaruvi ostida, milloddan avvalgi 329 - yilda Iskandar Zulqarnayn tomonidan bosib olingan. Millodiy V - asrlarda Eftaliylar davlatiga qarashli bo’lgan. Buxoro 709 yilda uni Arab xalifaligi fath etgan, IX - X asrlarda esa Usmoniylar poytaxti bo’lgan. 999 yilda Buxoro Qoraxoniylar, 1220 yilda Mo’g’ullar bosib olgan. 1370 yildan Amir Temur va Temuriylar davlati, XVI - asr boshidan Shayboniylar (1533 yilda bu davlat poytaxti Samarqanddan Buxoroga ko’chirilishi tufayli Buxoro xonligi deb atala boshlagan) va 1533 yildan 1920 yilgacha Buxoro xonligi (amirligi) markazi bo’lgan, so’ng Buxoro

bosqini natijasida sho'rolar tomonidan bosib olingan (*1-rasm). T*oqi Zargaron savdo gumbazi. XV asr. Umumiy ko'rinishi (*2-rasm).* Samoniylar maqbarasi. IX – X asrlar chegarasi. Umumiy ko'rinish Somoniylar maqbarasi. IX – X Tashqi bezak parchalari (*3-rasm).* Ulug'bek madras. XV asr boshlari. Umumiy ko'rinish (*4-rasm.).* Buxoro vohasi. Raboti Malik karvonsaroyi. XI asr. Bosh peshtoq qoldiqlari (*5-rasm).* Masjidi Kalon. XV-XVI asrlar. Umumiy ko'rinish Masjidi Kalon. XV – XVI asrlar. Kirish peshtoqi parchasi, Masjidi Kalon. XV - XVI asrlar. Ichki hovli. Umumiy ko'rinish ko'rsatib otilgan. *1920* yil 8 Sentyabrdan Buxoro shahri Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) ning poytaxti bo'lgan. Buxoro shahri 1925 yildan O'Zsssr va 1991 yil 1 Sentyabrdan mustaqil O'zbekiston Respublikasi tarkibida[3].

*Samarqand tarixi:* Samarqand juda boy va qadimiy tarixga ega. Shaharning paydo bo'lishi va rivojlanishi nihoyatda murakkab jarayonda kechgan. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda tosh davridanoq Zarafshon vodiysi ibtidoiy ajdodlar tamonidan o'zlashtirligan. Bunga vodiyning serunum tuprog'I, mo'tadil iqlim va odamzod yashash uchun qulay sharoit mavjudligi sabab bo'lgan. Zarafshon vodiysining bir necha joylarga odamlar istiqomat qilganlar, hozirgi Samarqand hududida hali shahar paydo bo'lmasdan ancha oldin Universitet xiyobonining janubiy tamonida Lolazor mahallasi o'rnida, Obi Rahmat arig'ining chap qirg'og'idan qo'rg'oncha mahallasida va Sartepa mavzesining janubiy qismida eng qadimgi qishloqlar yuzaga kelgan.

"Samarqand" so'zining birinchi qismi, ya'ni "Samar" so'zi shu shaharda asos slogan yoki shaharni bosib olgan kishi nomi bilan bog'laydi. Ammo tarixda bunday ismli kishi to'g'risida ma'lumot yo'q. so'zning ikkinchi qismi "Kent" (qand) –qishloq, shahar degan ma'noni bildiradi. Bu haqda juda ko'plab rivoyatlar bitilgan. Antik davr manbalarida shahar "Marakanda" deb atalgan. Bu balkim "Samarqand"ning yunoncha aytilishidir.

Qadimgi Sug'd, jumladan Samarqand xalqi o'z tarixi davomida bir necha marta chet el bosqinchilarga qarshi o'z mustaqilligini saqlab qolish maqsadida mardonavor kurashib kelgan. 329-327 (m.o) yillarda Samarqand aholisi

Spitamen boshchiligida Aleksandr Makedonskiy bosqiniga qarshi kurash olib boradi.

Yunon-Boxtar va Kushon podsholiklari davrida Samarqandda hunarmandchilik, savdo-sotiq, madaniyat va shaharsozlik yuksak darajada rivojlangandi

Samarqand orqali sharq va g’arb savdosi amalga oshirilgan edi. Buyuk ipak yo’lida Samarqand muhim bo’g’in hisoblanar edi. Shahar savdogarlari Xitoy, Misr, Suriya, Hindiston, Vizantiya bilan savdo sotiq qilar edilar. Aynan Samarqandda sharq va g’arb madaniyatlari o’zaro to’qnashgan va bir-birini boyitgan. Shu boyis sharqda keng tarqalgan maqolalardan birida “g’arbda Rim, Sharqda Samarqand” deyilgan. Shuning uchun bo’lsa kerak Samarqand va Rim insoniyat taqdirdagi buyuk xizmatlarni nazarda tutib “Boqiy” shaharlar nomini olganlar [4].



*1-Rasm.* Toqi Zargaron savdo gumbazi. XV asr. Umumiy ko’rinish.



*2-Rasm.* Samoniylar maqbarasi.

IX – X asrlar chegarasi. Umumiy ko'rinish Somoniylar maqbarasi.

IX – X Tashqi bezak parchalari



*3-Rasm.* Ulug'bek madras.

XV asr boshlari. Umumiy ko'rinish




*4-Rasm.* Buxoro vohasi. Raboti Malik karvonsaroyi.
XI asr. Bosh peshtoq qoldiqlari



*5-Rasm.* Masjidi Kalon. XV-XVI asrlar. Umumiy ko’rinish.
Masjidi Kalon. XV-XVI asrlar. Kirish peshtoqi parchasi.
Masjidi Kalon. XV_XVI asrlar. Ichki hovli. Umumiy ko’rinish

*Geografik tuzilishi* - Buxoro viloyati xududi asosan Qizilqum cho'lida joylashgan. Janubi-sharqini Zarafshon vodiysi egallagan. Shimoli-g'arbda Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi, shimol va sharqdan Navoiy viloyati, janubi-sharqdan Qashqadaryo viloyati, janubi-g'arbda Turkmaniston bilan chegaradosh. Maydoni 39,4 $km^2$. Buxoroning geograrafik joylashishi ko'rsatib o'tilgan (*6-rasm)*.

*Buxoro iqlimi -* yozi issiq, uzoq, quruq, iyulning o'rtacha harorati 28-32$^o$ qumliklarda 60-70$^o$ gacha ko'tariladi, yanvarning o'rtacha harorati 0$^o$ dan -2$^o$ gacha yiliga 90-150 mm yog'in tushadi.




*6-Rasm.* Buxoro geografik joylashishi

*Buxoro va Samarqand arxitekturasi* - Samarqand jahon shaharsozligi tarixida chuqur iz qoldirgan qadimiy maskanlardan biri hisoblanadi. Miloddan oldingi 1 – ming yillikning o'rtalaridan to XVII asr boshlarigacha Samrqand Sug'dning ma'muriy markazi bo'lgan. Buxoro esa o'zining uzoq tarixi davomida faol qurilish va qayta qurilishning bir necha bosqichini boshidan kechirdi. Me'morchilik taraqqiyoti VI-VII asrlar Buxoro Sug'di obidalarda yaqqol aks etgan. O'sha davr shaharlari unchalik katta bo'lmasa-da ulardagi turmush tarsi yuksak bo'lgan. Bu jixatdan Buxoro ham o'ziga xosdir.

VII asrda buxoroxudot Bidun barpo qilgan saroy kompozitsiyasi markazini tashkil etilgan. Saroy, chasmasi, ancha oldingi yumshoq qatlamlar to'shalmasi ustida qurilganligi sababli bo'lsa kerak bir necha bor buzilgan; nihoyat, qatlam ostiga, Narshaxiyning yozishicha, "tarihga ko'ra Katta Ayiq yulduzini eslatuvchi" mustahkam qoziqoyoqlar qo'yilgach, saroy bexavotir bo'lgan va XII asrgacha saqlanib kelgan [5].

Islomdan avval mavjud bo'lgan bezaklar amaliyotidan ganch va yog'och o'ymakorligi san'ati, bino ichkarisida esa devoriy naqsh tushirish o'zlashtirilgan. Siroq g'isht va plitalardan, keyinroq esa sirkor bezakli sapollardan foydalanish XI – XII asr ma'morchilik bezagining yutuqlaridan biri bo'ladi.

X-XII asr naqshlarida geometrik bezak – girih ustunlik qildi. Mazkur arab atamasi geometrik bezakning dastlabki elementini, shuningdek, uning asosida yaratilgan mukammal bezakni ifoda etadi.

Jahon me'morchiligining shoh asarlaridan biri – IX – X asrlar chegarasida vujudga kelgan Samoniylar maqbarasi Buxoroning o'rta asr inshootlari orasida alohida o'rin tutadi.

Chashmai Ayyub – Buxoroning oziga xos obidasidir. U ba'zan maqbara deb yuritiladi, aslida u Ayub payg'ambar qadamjoyidir.

XVI asr Buxoro me'morchiligida asosiy rivojlanish yo'nalishlari har biri taqriban uch  o'n yillikni qamraydigan uchta qurilish davrini ajratish mumkin. Birinchi davr 1500 – 1530 yillar – Buxoroning Temuriylardan keyingi rivojlanish davrini o'z ichiga oladi. 1530 – 1560 yillarni o'z ichiga oluvchi ikkinchi qurilish davri bo'lgan. Uchinchi qurilish davri 1560 – 1590 yillarni o'z ichiliga oladi [5, 26 bet].

Kurai zaminning eng g'aroyib joylaridan biri bo'lmish Buxoro shahridagi Labihavuz oldida Ko'kaldosh madrasasi qad ko'targan. Buxorodagi "sukut saqlab, qilt etmay turgan" qadimgi yodgorliklar orasida eng qadimgi hisoblanadi. Ushbu bino XVI – asrdan buyon shaharning ko'rki bo'lib keladi. Inshoat Mavorounnahrda mavjud an'anaviy madrasalar tizimiga xos qurilgan

bo'lib, yon tomonlari va ichki tomonidan o'ziga xos betakror xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Uning 153 ta hujrasida mullabachalar yigirma yil yashab – oqishi lozim bo'lardi.

Buxoroning tor ko'chalarida allazamonlardan beri meshkobchi bolalar izg'ishmaydi, jamoat joylarda maddohlar o'z she'rlarini o'qishmaydi, ammo ular haqidagi xotiralarning uch yuz yillik tutlar bilan o'ralgan qadimgi Labihovuz asrab – avaylayotgan bo'lsa, ne ajab. Hatto madrasa ham, boshqa yodgorliklar kabi yaqin kungacha o'z bag'rida sirlarini saqlab keldi.

Binoning o'ng tomonidagi avvalgi darsxona uzoq vaqt zahiraxona sifatida yopiq turdi. Hozirgi kunda bu joy qahvaxona sifatida qayta jihozlandi. Xuddi mana shu joyda ushbu maqolada so'z boradigan devoriy rangtasvir pannosi borligi aniqlandi. Bunda tasvir quruq suvoqlidevorga aks etirilgan. Yuksak malakali darajadagi tasvirlar uzoq vaqt e'tibordan chetda qoldi. Ular mutlaqo unitilib yuborikganligi bois, 1970 – 80 yillargacha saqlandi. Madrasani ta'mir qilish ishlari olib borilayogan payitda, suvoq qatlami ostida sakkizta nanoyon borligi aniqlandi.

"Paxta terimi" – bu devoriy kompozitsion suratlarni umumkashtirib tutuvchi mavzudir. Ularning markaziy sujetida alohida – alhida sakizta paxtakorning yig'ma obrizi turadi. Tasvirlarda milliy libos yopichiqdagi ayol yonida erkak va keksa ayol tasvirlangan. Bu tasvir ularning yashash tarizini, liboslar korinishini, ularning xayot tarzini ochib bergan.

Devoriy suratlar ham tarixni anchagina sir sinoatlarini ochib beradi. O'sha davirning o'tmishini, madaniyatini, urf-odatini, milliligini, liboslar korinishini aytib turadi.

*Miniatyura san'ati toshdagi tasvirlar* - O`zbekiston xalqining tasviriy san'ati juda ham qadimiy bo`lib, uning sarchashmalari ibtidoiy jamoa davri tosh asridan boshlanadi. Turli ranglar vositasida toshga bitilgan juda ko`p tasvirlar o`lkamizning turli xil vofalarida uchraydi. Ruspublikamiz janubida Ko`qitang tog'idagi Zaro`tsoydan topilgan Zarao`t (Suqdiycha Zaraut – tog' oraliqidagi o`t-o`langa va suvga mo`l joyiga aytiladi) ushbu joyda tasvirlangan yovvoyi

ho`kizlar ovi tasviri, ovchilar hayvon terisidan yopinchiq yopinib, tuyaqush ko`rinishidagi ho`kizga yaqinlashayotgani va unga boltacha, tosh, nayza va kamon bilan hamla qilayotganlari ajoyib tasvirlangan [6].

Tasvir chetida rassom o`z niyatini ifodalash uchun tog' sirtidagi burtoq o`rinlardan ham foydalanishgan va bir oz o`yib yoki rang bilan ularga shakl bergan, tog' darzlaridan kundalik hayotni tasvirlash uchun ham foydalanganlar. Bu yerga hayvonlarni haydab kelib qulatish tasviri cheklangan. Zarautsoyda yana boshqa turli hayvonlar, xar hil asbob-anjomlar, qurollar hamda quyosh tasvirini ko`ramiz. Ibtidoiy davrga doir tasvirlari, obidalari, yana Samarqand yaqinidagi Ilonsoy va Oqsoydan, Toshkent yaqinidagi Xo`jakentdan, Farqonadagi Suvratsoydan va boshqa joylardan topilgan.

Toshlarga o`yib ishlangan tasviriy san'at obidalari o`sha davrning odamlari hayoti, dunyoqarashi va mashg'ulotining ifodasi desa bo`ladi.

*Devoriy suratlar* - Samarqandning qadimgi Afrosiyobni o`rganishda qadimgi Suqdiylarning VII asrga oid devoriy rasmlari kashf etildi. qal'a devorlarining birida bir muncha saqlanib qolgan bezaklar topildi. Bundan tashqari devordagi serqasham liboslardagi kishilarning fil, tuya va otlarda kelayotgan tasviri bor. Devorni boshqa bir bo`lagida gilam ustida o`tirgan bir guruh odamlar suhbati tasviri tushirilgan. Ulardan birini qo`ltig'ida kitob, boshqasining choponi etagida sug'dcha yozuv bo`lib unda Chaqoniyon shohining Samarqand shohiga yuborgan elchisi haqida tasviri ifodalangan.

Termiz yaqinidan Tuproq qal'a ibodatxonasidan topilgan eramizning I va III asrlariga oid tasviriy san'at namunalari Chanchi qiz, uzum va shaftoli terayotgan ayol tasviri topilgan (*7-rasm*). Ushbu obida va tasvirlar o`tgan avlodlarimizning o`ziga xos badiiy madaniy markazlaridan biri bo`lganligidan o`sha davrning eng yorqin namunasi sifatida hozirgi o`qib o`rganayotgan talabalarimiz uchun tasviriy san'at namunasidir (*8-rasm*).




*7-Rasm.* Chanchi qiz, uzum va shaftoli terayotgan
ayol va erkak tasviri



*8-Rasm.* Miniatyura san’ati namunalari. Behzod XV – asr



*9-Rasm.* Saroy devoriga tizilgan rasm. Samarqand.  Afrosiyob. VII – VIII asrlar

Saroy devoriga tizilgan rasm. Samarqand.  Afrosiyob. VII – VIII asrlar (*9-rasm).* Varaxsha VI-VII aslar. Naqsh (*10-rasm).*  O'ymakor naqsh parchalari.Varaxsha (*11-rasm).* VI-VII asrlarda arxeologik qazilmalar yordamida topilgan qadimiy katta devoriy rasmlar, har xil buyumlarga tushirilgan tasvirlar, o'rta asrlardagi kitob minityuralari ajdodlarimizning o'tmishdagi kiyim – kechaklari to'g'risida boy ma'lumotlar beradi. O'rta asrlarga oid miniatyuralar o'zbek kiyimlarining turi shakllanganligi va ular keyingi davrgacha saqlanganligini namoyish qiladi. Xalqning kiyim – kechaklaridagi o'zgarishlar, asosan, asrimiz boshlarida sezilarli ravishda namayon bo'ladi va undagi transformasiya, asosan, shaharlarda ochiq – oydin bilinadi. Miniatyura bizga ko'pgina tarix darchalarini ochib beradi, nafaqat yashash muxitini ularning hayot tarzini ko'rsatadi. Miniyatyura o'sha davrning liboslarini ko'rsatib bergan ulardagi rang, naqsh, liboslar tuzilishini korishimiz mumkin.

Adabiyotshunos, musiqashunos, muzey xodimi yoki kolleksiyachi biron badiiy asarni o'rganayotganda o'z fikrlarini va farazlarini asoslash uchun avvalo o'sha asar yaratilgan davrga nazar soladi. U "tajriba va xatolar" asosida uzoq yillardan keyin ma'lum natijaga erishadi. Shundan so'nggina o'zi kashf etgan ixtironing asl ahamiyatini tushunib yetadi.




*10-Rasm.* Varaxsha VI-VII aslar. Naqsh



*11-Rasm.* O’ymakor naqsh psrchalari. Varaxsha. VI-VII asrlar

Afsuski, o’tmishda yaratilgan ko’pgina san’at asarlari o’z ijodkorlari to’g’risida, yaratilgan davri to’g’risida, sobiq egalari haqida ma’lumot bera olmaydi. Lekin, bundan haqiqiy “billur” asarning “billur” ligiga putur etmaydi. San’at asariga aylangan har bir ashyo haqidagi qo’shimcha ma’lumotlar esa, uning tarixini ochadigan “darcha” hisoblanadi.

Amaliy – bezak san’atining noyob namunalarini yaratgan ajdodlarimiz kelajak avlodlar uchun o’z nomini qoldirish masalasi ustida bosh qotirishmagan. Har kuni oila ehtiyoji va maishiy turmush uchun zarur mahsulotlar tayorlashni o’zlarining kundalik yumushi deb bilishgan. Lekin ular bu kundalik yumushlarini ham qunt va mehr bilan bajarishgan. Shuning uchun o’tmishda yashab o’tgan tikuvchiyu zargarlar, ganchkoru kulollar, yog’och o’ymakorlariyu miniatyurachilar yaratgan asarlar hozir ham bizni hayratga soladi. Qunt va mehr bilan yaratilgan devoriy surat yoki kitob minityurasi, so’zana yo an’anaviy libos ham ustaning nomini mashhur qilib yuborish mumkin.

Miniatyuraning badiiy uslubiy xususiyatlari.- Muallif yoki bosh qahromon «portreti» ichki kechinmalarini tasvirlovchi saxnalar suxbat mavzusi beriladigan bo`ldi. Avliyolar payg'ambarni tasvirlash mavzulari cheklana bordi. Jang, ov mavzularga munosabat bir muncha o`zgaradi. Mustakil peyzaj kompozisiyalari yo`qoladi. Ko`p kishilik bazm manzaralari kam figurali sokiylar bilan almashinadi. Yangi kompozision yechimlar, shemalar paydo bo`ladi. Keyingi davr qo`lyozmalarida miniatyuraning O`rta asr uslubiga pala-partish rioya qilishi

va personajlarning tarkibiy xarakteristikasiga aloxida - aloxida urg'u berish sezilib turiladi.

Xarakterli belgi sifatida me'moriy bezak tarzida boburiylar davri oq marmar inshoatlaridan nisbatan ilgarigi yolg'iz daraxt yoki peyzash fonini yassi perspektiv qisqartmalarsiz tasvirlovchi Eron O`rta Osiyo usulidan foydalanishni ta'kidlash mumkin. Ularda Kashmir etnik tipik zargarlik takinchoqlarga boy milliy kiyimda tasvirlanib yashil va ko`kimtir ranglar bilan birga noranjiy rang, kizil oltin ranglarning munosib uyg’unlashuvini ko`ramiz.

Kashmircha uslubda ishlangan O`rta Osiyo miniatyuralarida uning jihatlari kompozision ko`rilish me'moriy fon ifoda etiladi. Ammo etnik tipik va koloritda muayan uzgarishlar mavjud. Soddalik folklor rasmlar uning tabiiy rivoji va ichki buzilish jarayoni sezilgan klassik miniatyurani qayta qurilish natijasidir.

«Kamoliddin Bexzod zamondosh mo`yqalam soyhiblari orasida eng yaxshi musavvir xattotlarning boshlig'i o`z san'atining cho`qqisiga erishgan ulug’lardan edi» - deydi boshqa bir zamondoshi. Rassom va xattot Dustmuxammad Bexzodning shuxrati Sharqning buyuk miniatyurachisi bo`lmish shuxrati nakadar baland bo`lganligini kursatadi.

Bexzodning masjid qurilishi tasvirlanayotgan asarida esa ishlarining borishini keng ko`lamda ko`rsatib bergan. Bu miniatyuralarga qarab turib, odam ish juda qizg'in ketayotganini ko`rish mumkin. Navoiyning «Farxod va Shirin» dostonida Farxod jasoratini qanchalik kuylangan bo`lsa, Bexzod xam o`z miniatyuralarida Xirot shaxrini obod qilgan nomsiz ustalar va xunarmandlarni muxabbat bilan tasvirlaydi. Sa'diyning shaxri O`rta Sharqda unga teng keladigan shaxar yo`q edi. Xirot shaxri me'morchiligiga masjidlarning salobatligi bilan madrasalarni, mexmonxonalar, shifoxonalar, xammomlarning barcha qurilish binolarining aniq qurilmalari uni bezab turgan naqshinkor koshinlari kishilarni hayratga solgan. Bu yerda miniatyura va xattotlik asarlarining eng yaxshi namunalari ishlanardi. Sulton Xusaynning zamondoshlari Jomiy, Navoiy, Mirxond va Xondamir chiroyli xusnixat mualliflari xattot Sulton Ali, Mashxadiy

Kamoliddin Bexzod o`sha paytlarda Xirotning gultojilari edilar. Sulton Xusaynning o`zi ham shoir bo`lib, nafis san'atning nozik bilimdoni sifatida ijodkorlarga homiylik qilardi. Buyuk Bexzodning shakllanishida Navoiy katta ta'sir ko`rsatadi. Buyuk ustoz o`zining mashxur musavvirlariga Amir Nizomiddin Alisher Navoiyning marxamati va g'amho`rligi tufayligina erishdi deydi tarixchi Xondamir. XV asrning 90 yillarida Sulton Xusayn Bayqaro Bexzodni o`z kutubxonasiga boshliq qilib tayinlaydi. U Sharqning buyuk yozuvchisi va shoirlarining asarlariga miniatyura chizishni buyurar edi. Sulton Xusayn xattot o`z boqida Bexzodga ijodxona qurdirgan. Uning ishidan zavqlanish uchun uni oldiga tez-tez kelib turar edi. Bu bilan dunyoning tashvishlarini birmuncha unutganday bo`lardi. 1537 yilda Sulton Xusayn vafot etdi. Shayboniyxon Xirotni bosib oldi. Bexzod Xirotda qolib o`z ijodini davom ettirdi. Shaybonixon ham bilimdon hukumdor bo`lib rassomga aloxida e'tibor beradi va unga o`z portretini chizishni buyuradi. Shayboniyxon halokatidan so`ng 1510 yil Xirotni shox Ismoil bosib oladi. Bexzod boshqa bir xukumdor xarakatiga o`tishga majbur bo`ladi va safaviylar poytaxti Tabrizga boradi. Shox Ismoil Bexzod ijodini yuqori baxolaydi.

Buston asarida mashxur Doro cho`pon miniatyurasi Navoiyning insonparvarlik qoyalari ta'siri ostida yaratilgan. Bu miniatyurada qoyali tog'lar, ba'zi joylar butalar bilan qoplangan yam-yashil o`tloq, cho'ponlar va otlar yorqin bo`yoqlar ostida bir-biri bilan uyqunlashib ketgan. Bu asarida xam Bexzod baytal onasini emayotgan toychoq va qimiz quyayotgan cho`pon bola kabi xaqqoniy va hayotiy lavhalarni tasvirlaydi. Ayniqsa, cho`pon qomati juda ta'sirchan chiqqan [7]. Bexzod chizmalarni ishlash jarayonida xar bir elementiga moxirlik bilan ishlov bergan, xozirda uning chizmalari kelajak avlodlarga maktab bo’lib kelmoqda (*12-Rasm).*



*12-Rasm.* Miniatyura san'ati chizgilari

## 1.2. Buxoro va Samarqand milliy madaniyati (urf-odati, marosimlari, kiyimlari va kiyinish madaniyati)

O‘zbekistonning an’anaviy liboslari tarixi uzoq o‘tmish va o‘rta asrlarda mamlakatimiz hududiga kelib joylashgan xalqlarning etnik tarixi bilan chambarchas bog‘liq. Etnik kelib chiqishi, iqlim, din ta’sirida yuzaga kelgan axloq meyorlari, odob-axloq qoidalari, ijtimoiy sharoit, yoshga doir va mehnat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, savdo va madaniy aloqalar, qadimiy va o‘rta asrlar texnologiyalarining rivojlanishi, maishiy an’analar O‘rta Osiyo, jumladan, o‘zbek xalqi libosining shakllanishida muhim o‘rin tutgan.

Asrlar davomida shakllanib, sayqallanib va rivojlanib borgan o‘zbek milliy liboslari xalqimiz xarakteri, kundalik turmushi va urf-odatlarini o‘zida mujassam etadi. Ushbu jihatlar libos bichimi, tayyorlash texnologiyasi va matolardagi tasvirlar, bosh kiyimining ramziy belgilarida, liboslarning naqshinkor kashtalari va ranglari ma’nosida uyg‘unlashgan. Ming yillar davomida O‘rta Osiyo xalqlari liboslarida ikki asosiy tarkibiy qism – zamindor o‘troq jamiyat va ko‘chmanchi qabilalar madaniyati belgilari uyg‘unlashib ketgan. Ularda qadim zamonlar va o‘rta asrlarda o‘zbek liboslari tuzilishi muhim o‘rin tutgan. Har bir tarixiy davr O‘rta Osiyo etnoslari libosida o‘z izini qoldirgan. Liboslarga boshqa madaniyatlarning eng yaxshi jihatlari singdirib borilgan.

An’anaviy o‘zbek liboslarida o‘ziga xos ma’nolar ifoda etilgan. Xususan, inson hayotida muhim bo‘lgan to‘y yoki aza, yosh bilan bog‘liq liboslarni saqlash yoki ularni avlodlarga berishga doir marosim va tartib-taomillar ishlab chiqilgan. Bu, asosan, ayollar liboslari bilan bog‘liq bo‘lgan. O‘ziga xos ma’nolar, eng avvalo, liboslar ranglari yechimi, bezaklar va tegishli bosh kiyimlarining mavjudligi bilan ifodalangan.

Libosning qiymati nafaqat sarflangan mehnat va qimmatbaho matolar, balki mo‘jizaviy tasavvurlar bilan ham belgilangan. Ushbu tasavvurlarga ko‘ra, libos insonni go‘yo turli balo-qazolardan asraydi. O‘rta Osiyo xalqlarining

tasavvuricha, libos inson tanasiga muntazam tegib, uning quvvati bilan to‘yinadi va o‘zida egasining barakasini olib yuradi.

O‘zbek liboslarida rang maqom, yosh va nasl-nasabni belgilab, inson hayotida muhim o‘rin tutgan. U diniy va sehrli marosimlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Rang, ayniqsa, to‘y liboslarida alohida ahamiyat kasb etgan. Chunonchi, to‘y liboslarida tozalik, poklik, ezgulik ramzi sifatida oq rangdan foydalanilgan bo‘lsa, qizil rang yovuz ruhlar va ko‘z tegishdan himoya sifatida ishlatilgan. Aza marosimida ko‘k, qora va oq rangdan foydalanilgan. Qadimgi ajdodlarimiz tasavvurida rang-barang (*haftrangi* – yetti rangli) matolardan tikilgan liboslar turli kasallik va qiyinchiliklardan asragan. Bir paytda kiyiladigan liboslarning turli rang va tasvirlari ko‘zni quvontiradigan uyg‘unlikni yaratgan. To'y marosimlarida ochiq ko'zga tashlanuvchi, yorqin ranglardan libos kiyilgan.

Kulota marosimi - qadimda yoshi kotta ayollar birinchi nabiralik bo'lishganda, kulota kiganlar, sababi yoshi ulug' inson bo'ldi deb sochlarini ikkita qillib kulota kiyishgan. Kulota bu - ba'zi joylarda kulta, kultapesh, kultapishak deb nomlangan. Uning shakli do'ppiga yengni ulab qo'yilgandek bo'lgan, orasidan ikki o'rim sochlarni tashlab yurilgan. Kulota kiygan onalar o'sha qishloqning kayvonilaridan hisoblanib, ular endi xodimlik, dastirxonchilik, kinnachi, kushonchilik, folchilik bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lganlar.

Po'pak marosimi - kelinchaklar birinchi farzandini ko'rganda, sochlarini qirq kokil qilib, unga jamalak po'pak taqqanlar. po'pak bezab. Po'pak qora ipdan to'qilgan bo'lib, huddi qirq kokil shaklini bergan. Uning ustki va pastki qismi ko'ndalang iplardan ham iborat bo'lib po'pak to'rt burchak shaklida saqlab turgan[9].

## II-bob Tajriba sinov qismi

### 2.1. Buxoro va Samarqand an’anaviy milliy liboslarining muzeylar bo’yicha taxlili

Buxoro va Samarqand xalqlarining kiyim – kechaklari ko’p asrlik tarixga ega. Buxoro va Samarqand o’zga xos xususiyatli bosh – oyoq kiyimlari bo’lsada, mintaqada yashovchi etnoslar umumiy xarakteridagi sarpo mavjudligi, ularning tarixiy taqdiri, madaniyati uzoq davr o’zaro yaqin bo’lganligidan dalolat beradi.

Aslar davomida shakllanib, mazmunan boyigan bu ma'naviy xazinaning asosiy qismini xalq amaliy san'ati tashkil etadi. Xalq yaratgan hunarmandchilik turlarining bunday yuksak san'at darajasiga erishuvi, o'tmishdan hozirgacha uzluksiz davom etib kelayotgan izlanishlar samarasidir bunga tarix guvohlik beradi.

Buxoro va Samarqandning milliy kiyimlari O'zbekistonning boshqa mintaqalari kiyimlaridan serhashamligi va noyob zardo'zi kashtalari bilan ajralib turadi.

Buxoro va Samarqand o'zbeklari milliy kiyimlarning noyob namunalari aholi har bir toifasining ijtimoiy ahvolidan kelib chiqib taqdim etilgan. An'anaviy milliy kiyimlarda qo'shni davlatlarning madaniy ta'siri kuzatiladi, uning asosiy shakllari va ayrim elementlari asrlar davomida yaratilgan.

XIX va XX asr boshlarida kashtachilik san'atining bir turi bo'lgan zardo'zlik Buxoroning o'ziga xos xususiyatini aks ettirgan. Mazmuni jihatdan xalqchil bo'lgan va qimmatbaho matodan tayorlanadigan zardo'zi kiyimlar mahalliy aholining turli tabaqalari o'rtasida keng tarqalgan ipak ip bilan kashta tikishga qaraganda nozik didni talab qilgan. Bu kiyim-kechaklar asosan amir saroydagilarning ehtiyoji uchun tikilgan, ba'zangina shahardagi boy ayonlar uchun tayorlangan.

Erkaklar zar bilan tikilgan to'n, kamzul, chakmon, chalvor, poyafzal, belbog', salla, kuloh va jul faqat xonga va uning buyurtmasi yoki yaqinlari tomonidan bironta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan tayyorlash

buyuriladi. Hech kim,  hatto eng katta amaldorlardan birontasi ham bu kiyimlardan hech birini o'ziga buyurtirishga haqi yo'q edi, ular zarboft kiyimlarni amir sovg'a qilgandagina kiyishlari mumkin edi.

XIX va XX asr boshalarida, ya'ni 1785 yildan to 1920 yilgacha Buxoroda xukumronlik qilgan mang'itlarning oxirgi sulolasiga taalluqli bo'lgan zardo'zi kiyimlari hozirgi kunda bizgacha yetib kelgan yagona yodgorlik nusxalaridir.
Mang'itlarning birinchi sulolasi vakillariga mansub bo'lgan zardo'zi ash'yolar bizgacha deyarli yetib kelmagan.Ammo Haydar (1800- 1826 y) zamonidan yagona yodgorlik sifatida zardo'zi mahsi saqlanib qolgan. Mahsiga 1224 y raqami tikilgan, bu melodning 1809-1810 yillarga to'g'ri keladi. Mazkur raqamning uchrashi shu payitgacha zardo'zi kiyimlarda ro'y bergan yagona holder [10].

Amir Nasrullodan ( 1827-1860 y ) anchagina zardo’zi kiyimlar saqlanib qolgan. Buyumlarning ko’pchiligi 1895 yildan 1911 yilgacha hukumronlik qilgan Abdulahadga mansubdir, zero buxorolik kashtachilarning zardo’lik san’ati shu davrda gullab yashnagan deb hisoblanadi.

Ma’muriy-harbiy tarkib yoki idoralar amaldorlari qoidaga binoan turli shoyi va nimshoyi matolardan tayyorlangan chopon kiyib, zarhal va qora kumush qadama bezakli kumush tasvirlar tushirilgan enli kamar taqqan. Kamarlardagi bezaklar amaldorning mavqeiga qarab, turlicha bo‘lgan. Baland poshnali qo‘nji uzun etik kiygan. Etik poshnasi uchi juda ingichka bo‘lgan. Hatto poshnaning uchi katta mix qalpoqchasidan tayyorlangan. Amaldorlar katta bo‘lmagan oq salla o‘ragan. Egri qilich kamarbandga emas, balki mahalliy baxmalsimon charm – g‘uzoridan tayyorlangan kamarga taqilgan. Odatda bunday kamar ancha enli bo‘lgan amaldorlar belbog‘i ostidan taqilgan», deb qayd etilgan.

Buxoroda zardo’zlik 1920 yil amir taxtdan ag’darilguncha rasmiy jihatdan saroy san’ati hisoblanardi.Bu shaharda tayyorlanadigan zardo’zi buyumlarning deyarli hammasini egallab olgan katta buyurtmachini yo’qotgach, tabiiyki, zardo’zlik korxonalari keskin kamayib ketdi. Zardo’chilar Sovet hokimyati

o’rnatilishi bilanoq darrov hunarmandchilik artellariga birlashib, mayda buyumlar, do’pilar va ayollarning ayrim kiyim- kechaklarini tayyorlashga kirishdilar.

Revolyusiyaning birinchi yillardagi og’irliklarga qaramay, zardo’z ustalari va ularning shogirtlari san’atlaridan ajoyib namunalar yaratadilar, unga yangicha sayqal, yangicha kompozitsiya beradilar.

Majidov va qo’li gul kashtachi usta Fayzullo G’aybullaevlar artelga kelgan yoshlar, ayniqsa, ayollardan mohir kashtado’zlar yetishib chiqishida o’zlarining salmoqli hissalarini qo’shdilar.Kashtachilik san’atining tajribali ustasi, iste’dodli gulkor usta Omonjon

XIX asrga kelib zardo’zlik mahsulotlari ishlab chiqarish Buxoro amirligining poytaxti Buxoro shahrida o’zining umumiy markaziga ega bo’lib, u dastavval, amir, saroyi zadagonlari va jamiyatning tabaqasi talabini qondirish uchun xizmat qilgan, baxmal – bular butun musulmon Sharqida ma’lumu mashhur turlardir [11].

O‘zbekiston hududida an’anaviy liboslar O‘rta Osiyoning boshqa xalqlari liboslari bilan umumiy oqimda shakllanib, boy madaniyat va qo‘shni mamlakatlar bilan madaniy aloqalar bilan bog‘liq bosqichlarni bosib o‘tdi. Ushbu bosqichlar qadimgi va antik (eramizdan avvalgi I-II ming yilliklar – eramizning IV asri), o‘rta asrlar (V – XV asrlar), o‘rta asrlardan keyingi davrlarni (XVI – XIX asrlar) qamrab oladi.

O‘zbek milliy liboslari majmui o‘zining ko‘p asrlik taraqqiyoti davomida ikki jins va barcha yosh toifalari uchun o‘zgarmay, qadimdan yaxlit bo‘lib kelmoqda. Umumturkiy an’nalarga ko‘ra, uning tarkibiga ko‘ylak, shim va lozim, chopon, poyabzal va bosh kiyimi kirgan.

## 2.2. Buxoro va Samarqand an'anaviy milliy liboslarning umumiy ko'rinishi, ko'p qavatliligi, ishlatiladigan matolari va bezaklari

Qadim – qadimdan Buxoro va Samarqand shoyi, yarim shoyi barqut va ip-gazlama matolar ishlab chiqarish bilan shuhrat qozongan. X asrning muarrihi Muxammad Nurshaxiy ta'kidlagan ediki, Movarunnaxrning bironta ham shahrida Buxorodagidek chiroyli gazmol to'qiy olmaganlar. O'rta asrlarda Buxoro vohasi hududida shoyi va ip-gazzlama to'qimachiligi markazi Zandana qishlog'i hisoblangan, shu nomdan "Zanadanachi" degan mato atamasi kelib chiqqan. Buxoro to'qimachilarning mahsuloti Buyuk Ipak Yo'li orqali butun dunyoga tarqalgan.

Buxoro Davlat muzey-qo'riqxonasi gazlamalari to'plami 450 dan ko'proq namunani o'z ichiga olgan bo'lib, yuqori sifatli yo'l-yo'l va abrli mayin matolarni oddiy va murakkab chatishuvining boy to'plam o'zida namoyon etadi: atlas, adras, shohi, olacha, banoras, beqasam, chiti-chati, gulbosma, qalami va hokazo. Muzey to'plami 1924 – 1993 yillar davomida shakllangan. U metr ko'rinishida, tayyor kiyim holatida, maishiy bezak buyumlari sifatida matolar namunalaridan tashkil topgan. Muzey matolar to'plamini tadrijiy ravishda uch yirik davrga bo'lish mumkin:

I. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshi matolarini ayniqsa qiziqarli namunalari to'qilgan, ular bezagida o'ziga xos xususiyatlar yaqqol aks etib turadi. Ular orasida bolalar, erkaklar, ayollar ustki kiyimlari majmualari, maishiy buyumlar va uy ichi buyumlari saqlanib kelingan.

II. 1920 – 1960 yillar. Bu davrga shirkatlarda qo'l bola ustulida to'qilgan mato namunalari kiradi. Bu davrda mato ishlab chiqarish va bezashning yetakchi usullari Buxoro va Farg'ona usullari hisoblanadi.

III. 1960 – 1990 yillar. Bu davr to'plami fabrika to'qimachiligi mahsulotlari hisoblanadi [5, 31 bet].

Gazmollarning gullari alohida ahamiyat kasb etadi. Qo'l bola matolarning badiiy bezagi asosan ikki turdan iborat: yo'l – yo'l chiziqlarni bir maromda almashib turishidir.

“Abrbandi” usuli gul va rasmlarga ko’ra asos yarim joylarini keying boyash ishi vositasida bir- biriga bog’lash yo’li bilan boshqa joyga ko’chirishdan iborat. Bunday usul xira, chaplangan chiziqlarni yuzaga keltirgan. Abrli matolar rasmi kamalak ranglarining bir-biridan o’qsimon ajralishini o’zida namoyon etgan.

Abrli gullar tuzilishi asosan yirik gullarning joylashuvi yoki mayda gullarning matoning barcha burchaklariga sigsilali tarzda yoyilishidan iborat bo’lgan.

Ornamentda handasaviy, islimiy, buyum shakillari bir-biri bilan uyg’unlashib ketgan bo’lib, ular Buxoro va Hisor shoyisi va yarim shoyisi namunalarida uchraydi.

Xotin – qizlar liboslari uchun asosan, mahalliy hunarmandlar to’qigan “alacha”, “beqasam”, “adras” singari turli ipak va paxta matolardan foydalanilgan. Samarqandda to’qimachilikning rivojlanishi qadim zamonlarga borib taqaladi. Tarixchi Narshihiyning qayd qilishicha, Samarqandning yuqori sifatli gazlamalari X aslardayoq Suriya, Misr, Xuroson, Vizantiya kabi mamlakatlarida g’oyat qadrlangan [10, 29-30 betlar]. Boburning ma’lum qilishicha esa, XV-XVI asrlarda Samarqandda maxsus tayorlangan qimmatbaho mato – qirmizi baxmalning shuxrati ko’p mamlakatlarga tarqalgan edi [10].

XIX asrgacha bu erda ko’pgina matolarni tayorlash to’xtatilib, XIX asr o’rtalaridagina samarqandlik kosiblar yana qaytadan turli gazlamalar to’qishni yo’lga qoyishdi. XX asr boshlarida (1912 yillar)da Samarqandda 237ta shoyi to’qish ustaxonasi faoliyat o’rsatayotgan bo’lsa, shu payitning o’zida Buxoroda ularning soni 46 ta, Qarshida esa bor yo’g’I 19 ta bo’lgan, xolos [5]

XX asrda Samarqand abrli gazlamalari ko’rinishi, badiiy uslubi jihatdan o’proq Buxoro tayorlangan gazlamalar bilan o’xshash bo’lgan. Masalan, abrli gazlamalarda Buxoro maktabiga xos bo’lgan yirik naqshlar va yorqin rang (asosan och-qizil, och-binafsha, nofarmon rang)ning qo’llanishi kuzatiladi. Mahalliy matolar kompozitsiyasi, asosan, aylana, kvadrat, romb, olti qirrali chambarak, S shaklli naqsh unsurlaridan tashkil topgan edi.

Ayollar liboslarini tikishda mahalliy matolardan tashqari, chetdan keltirilgan gazlamalardan ham foydalanilgan. Buxoro Samarqandga ipak, turli rangli baxmal matolar, Shahrisabzdan yigirilgan ip, turli ipak xom ashyosi keltirilgan. Keyinchalik O'rta Osiyoning boshqa hududlari singari Rosiyadan fabrikalarda to'qilgan turli gazlamalarni Samarqandga olib kelish ko'paygan.

*Liboslarda naqsh elementlarini shakillanishi:* Ancha qadimgi davrda zardo'zligi namunalari bizgacha yetib kelmagan.Biroq yozma adabiyot manba'larida san'atning bu turi XIV asrda ham mavjudligi, eramizning VI-VII asrlariga oid devoriy rasmlardagi ajoyib naqshu- nigorlar esa zardo'zlik ilk o'rta asrlarga ham rivoj topganligi haqida darak beradilar.

Zardo'zlik san'ati o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, deyarli barcha Sharq mamlakatlari uning vatani hisoblanadi. Zardo'zlikning vatani qadimgi Yunoniston bo'lib, bu yerda zodogonlar zar, ipak va jun ip qo'shib to'qilgan kashtali naqshlar tushirilgan kiyimlar kiyishgan. Keyinchalik Rim imperiyasi tomonidan bosib olingan. Qadimgi Misr va Bobilda ham zardo'zlik rivojlana boshladi.Ayniqsa, Qadimgi Bobil (Vavilion) o'zining kashtali qimmatbaxo matolari bilan dunyoga mashxur bo'lgan. Bobil podisholari va asil zodagonlarining kiyimlari ham geometrik naqshli kashtalar bilan kashtalangan bo'lib, ularga quyma gulli oltin plastinkalar kiritilgan.

Piliniyning aytishicha, Vavilon kashtachiligi qadimdan mashhur bo'lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o'sha yerda kashf etilgan. Keyinchalik Vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kirgach, zar, ipak yoki jun ip qo'shib tikilgan rang- barang kashtachiligi bilan shuhrat qozongan. Zardo'zlik san'atining an'analari Vizantiyada ham rivoj topib, zardo'zi kiyim – kechaklar faqat imperator ayonlari va aslzodalarigagina mansub bo'lgan.

Sosoniylar davrida Eron podshohining saroyida ham zardo'zlik san'ati rivoj topgan deyishga asos bor, chunki bu mamlakat Vizantiya bilan muntazam madaniy va siyosiy hamkorlik qilgan. Hozirgi Eronda XV-XVII asrlardagi zardo'zlik namunalaridan anchagina yodgorlik saqlanib qolganligi badiiy an'analar uzoq yillar davomida rivojlanganligidan dalolat beradi.

Qadimgi Rus ham Vizntiyaga taqlid qilib zardo’lik san’atini o’rgangan.XIII va XV asrlarda Kichik Osiyo doirasida paydo bo’lgan hamda Vizantiya imperiyasini barbod qilgan usmonli turklar ham ushbu san’atga o’zlarining munosib ulushlarini qo’shganlar, Qirim va Kavkazning qayeridaki Vizantiya madaniyati uzoq vaqt va kuchli ta’sir o’tkazgan bo’lsa, o’sha yerda zardo’lik ham rivojlangan. O’rta Osiyoda ham zardo’lik san’ati, shubhasiz, o’zining ildiziga ega. Shu narsa ma’lumki, masalan, 1403-1406 yillarda Samarqandga sayohat qilgan ispan elchisi Ryui Gonzales de Klavixo o’z esdaliklarida, Temur saroyida zardo’likning milliy kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan [10, 7-8 betlar].

Hirotda Alisher Navoiy davrida yashab ijod etgan Vosifiy o’zining risolalarida zardo’lik kasbi to’g’risida so’z yuritilgan. Adabiy yig’inlarning qatnashchilari haqida gapira turib, Hasan zardo’z degan bir shaxsning nomini alohida uqdirib o’tadi va uni Hirotning eng obro’li, “istiqboli porloq yoshlari” qatoridan o’rin olganligini aytadi.

Podsho Aleksey Mixaylovichning Abdulazizxon huzuriga yuborgan elchilari (1669-1671 y) Boris va Semen Pazuxanlarning hisobotida yozilishicha: elchilar Buxorodan jo’nash oldidan zardo’zi chopon, telpak va belbog’ sovg’a olganlar. Bu esa zardo’lik Buxoroda XVII asrdayoq rivoj topganligidan dalolat beradi.

XIX va XX asr boshlarida kashtachilik san’atining bir turi bo’lgan zardo’zlik Buxoroning o’ziga xos xususiyatini aks etirgan.

*XX-Asrning 20- yillarigacha bo’lgan davr.* Bu davrning o’ziga xos xususiyati shundaki, zardo’zlik shakillanganidan boshlab O’rta Osiyo o’lkalarida ham podsho va saroy ayonlarini oddiy xalqdan ajratib turishga, shu bilan anashu oddiy xalqgo’zal g’oyalar bulog’i ekanligini eslatib turishga xizmat qilgan.

*XX asrning 20- yillaridan- XX asrning 90-yillarigacha bo’lgan davr.* Bu davrda zardo’zlik xalqni mustamlakachilardan ajratib ko’rsatishga va uning yuksak madaniyati mavjudligini eslatib turishga xizmat qilgan.

*XX-Asrning 90- yillaridan keyingi davr.* Bu davrda zardo'zligi mustaqil o'zbek xalqining o'ziga xosligini jahonga tanitishda katta hissa qo'shdi va qo'shmoqda [12].






*13-Rasm.* Amir Siyyid Olimxonning oila azolari. XX asr boshi




*14-Rasm***.** Amir Siyyid Olimxonning rus zobitlari orasida tushgan fotosurati. XX asr boshi





*15-Rasm.* XX-Asrning 90- yillaridan keyingi davr  zardo'zlik rivojlanishi

O’zbek an’anaviy liboslari tarixi shundan dalolat beradiki, O’zbekistonning Buxoro va Samarqand an’anaviy liboslar shahar madaniyati ta’sirida qishloq joylaridagiga qaraganda tezroq o’zgarrishga uchragan.Buxoro va Samarqandda ikki xalq – o’zbeklar va tojiklar yashab, ular orasidagi doimiy madaniy aloqalar qisman an’anaviy liboslarda ham aks etgan.

Buxoro va Samarqand kiyim-kechagi, asosan, ustki va ichki koylak, ustki va ichki ishton va ustki va ichki chopondan, boshga do’ppi, salla, oyoqqa kalish-mahsi va etik kiyishdan iborat bo’lgan. Erkak – ayol va katta – kichiklar kiyimlari bichimining deyarli bir hilligi ularning qadimiyligidan darak beradi. Bunday liboslar oddiy usulda, ba’zan qaychisiz va ulgusiz (andaza), yaxlit matodan yirtib tikilgan. Bir parcha gazlamani ikkiga buklab elka tomoniga ko’ndalangiga ikki eng bilan bir parcha to’rburchak xishtak ( qo’ltig’iga solingan) ni tikib kiyilavergan.

*Erkaklar ichki ko‘ylagi* – kurta yoshga qarab vertikal (kurtai mardona) yoki gorizontal bo‘yin qismiga ega bo‘lgan. Buxoroda erkaklar ko‘ylagi tuzilishining o‘ziga xosligi ikki tomonlama bichilishi bilan bog‘liq edi. Buning natijasida markaz bo‘ylab bo‘ylamasiga tikilgan va keng bo‘lgan. Qadimda mazkur ko‘ylaklar tizzadan pastga qadar tushib turgan. Keyinchalik esa uzunligi belgacha qisqartirilgan. Har kuni kiyiladigan ko‘ylaklar xonaki ip gazlamadan tikilgan. To‘y marosimlariga mo‘ljallangan ko‘ylaklar shoyidan tayyorlangan. O‘zbekiston muzeylarida erkaklar ko‘ylaklari saqlanib qolmagan. Chunki libosning ushbu turi qolganlariga qaraganda tez yirtilgan.

*Erkaklar shimi (ezor*) – Ezorning o‘rta qismi ikkita uchburchak shaklida tikilgan og‘dan iborat bo‘lib, unga to‘piqqacha tushadigan keng pochalar ulangan. Yuqori chet qismi qayrilib tikib chiqilgan. Undan bog‘ich o‘tkazilgan. Ezor asosan ip gazlamadan, amir va zodagonlar kiyadigan shimlar bo‘rtma gulli, zarbof matolar yoki baxmaldan tikilgan. Shimlarning pastki qismiga zar yoki mo‘yna urilishi mumkin edi. Pochalarning pastiga va yon tomonlariga jiyak tikilgan. Jiyak nafaqat bezak, balki himoya vazifasini ham o‘tagan (*1-rasm ilovada*).

*Erkaklar choponi* – mavsumga qarab, uch turga bo‘lingan: joma – astari qavilgan kundalik chopon, chakmon – jun matodan tikilgan qishlik chopon, yaktak – baxyasiz yozgi kiyim. Buxoro choponlari uzun, enli bo‘lib, yengi bilakka qadar torayib kelgan. Mazkur turdagi choponlar bilan bir necha kiyim kiyilgani tufayli ular keng qilib tikilgan. Bayramga mo‘ljallangan choponlar yorqin rangli bo‘lgan. Marosim choponlari yorqin va yirik gulli xonaki shoyi yoki Xitoy va Rossiyadan keltirilgan beqasaba nimshoyi matodan, adras yoki zarbof matodan tikilgan (*2,3-rasm ilovada*).

*Erkaklar bosh kiyimi* – mato va mo‘ynadan tayyorlangan turli shakldagi telpak, do‘ppi va salladan iborat edi. Matodan tayyorlangan bosh kiyimi uch tur – qalpoq, araqchin va kulohdan iborat bo‘lgan. Qalpoq astari mustahkam, konussimon va qavilgan, keng gardishli bosh kiyimi edi. Boshga yopishib turadigan araqchinning oq matodan astari va kashtalari bo‘lmagan. U asosan qimmatbaho do‘ppi yoki mo‘ynali telpak ostidan kiyilgan. Kuloh to‘rtta uchburchakli segmentdan tashkil topib, gardishsiz edi. Kulohni asosan darvish-qalandarlar kiygan.(*4-rasm ilovada*) Telpak Samarqandda ham Buxoroda bo‘lgani kabi qorako‘ldan tayyorlangan. Telpak yon tomonlari qunduz yoki suv qunduzi mo‘ynasidan qilingan. Astari tulki yoki qo‘y terisidan tayyorlangan. XIX asr ikkinchi yarimigacha salla asosiy bosh kiyimi sanalgan. Keyinchalik salla faqat ko’chaga chiqilganda kiyilgan. Bora – bora u kundalik bosh kiyimi sifatida emas, balki “sallabandon” deb nomlashuvchi marosimlardagina kiyilgan (*5-a. b – rasm ilovada*).

*Erkaklar oyoq kiyimi* – Erkaklar tizzagacha bo‘lgan, qattiq tagcharmli muza deb nomlangan etik va malla zamshdan tayyorlangan, uchi qayrilgan mo‘kki etik kiygan. Mo‘kkini asosan qishloq aholisi kiygan. Etik paytava bilan kiyilgan. Paytavaga oddiy naqshlar tikilgan (*6-rasm ilovadsa*).

Buxoro bilan Samarqand doimiy iqtisodiy va madaniy aloqada bo’lishi xotin qizlar liboslarida ham yangi shakl va unsurlarning yuzaga kelishiga olib keldi.

Ayollar an’anaviy libosi koylak, lozim, ustki kiyimlar: “munisak”, “paranji”,  chopon”, bosh kiyim va poyavzaldan iborat bo’lib, kundalik va toy-marosimlarda kiyiladigan liboslar tikilishi jihatidan bir hil bo’lgan. Ular orasidagi birdan bir farq marosim kiyimlarining rangi, matosi va bezakdorligida edi. Ayollar o’zlariga libos tanlashda albatta matoning rangiga ahamiyat berishgan. Qizlar ko’proq qizil rangli matolardan tikilgan liboslarni yoqtirishgan. Ko’pgina xalqlarda qizil rang muhabbat, xursandchilik ramzi sanalgan. O’rta yashar ayollar ko’k tusdagi matolardan tikilgan liboslar xos bo’lgan. Keksa ayollar esa, ko’k-yashil, oq rangli liboslarni ma’qul ko’rishgan. Qadim zaminlardan beri oq rang pokizalik, gunohlardan poklanish belgisi hisoblangan. Najmiddin Kubroning takidlashicha, so’fiylik tariqatida oq rang “poklanish” ramzidir. Murid poklanishga erishgandan keyingina “tariqat” yo’liga kirishi mumkin bo’lgan [16]. Ehtimol, shu bois ham keksa kishilarning oq rangli libos kiyib yurishi ularning narigi dunyoga xotirjam ketishi uchun avval barcha gunohlardan poklanish lozim degan tushunchalar bilan bog’liqdir.

O’sha davrda yashagan xitoylik sayyoh Chan-Chun bu hususida shunday deb yozib qoldirgan:“Samarqandlik erkaklar va ayollar koylaklari mayin oq jun matodan tikilgandir. Ko’rinishidan qopga o’xshaydigan bu libos turi engli bo’lib, etagi kengaytirib olingan”[17].

*Ayollar ichki ko’ylagi* -  Ayollarning kurta ko‘ylagi yosh toifasidan qat’i nazar, kiftaki kurta (qizlarning gorizontal yoqali ko‘ylagi) va kurtai peshkusho (turmushga chiqqan ayollarniki) deb nomlangan. Moddiy ahvoldan kelib chiqqan holda, bir paytning o‘zida ikki-uchta ko‘ylak kiyish mumkin bo‘lgan. Oq xomsurpdan tikilgan ichki va rang-barang xonaki shoyi, chet eldan keltirilgan zarbof, baxmal kabi matolardan tayyorlangan tashqi ko‘ylakni kiyish majburiy edi. Buxoro ayollari ko‘ylaklari ikki qismli keng bichimi, trapetsiyasimon yon qismlari, keng va to‘g‘ri burchakli uzun yenglari bilan ajralib turgan. Ayniqsa, to‘y ko‘ylaklarining yenglari juda uzun bo‘lgan. Ichki oq ko‘ylaklarning yenglari ham uzun bo‘lgan. Yenglarning uchiga yorqin rangli kashta tikilgan. Yenglarning umumiy uzunligi uch metrgacha yetishi mumkin

bo‘lgan. Ayni paytda ko‘ylakning umumiy uzunligi to‘piqqacha bo‘lib, oyoq kiyimi ko‘rinib turgan. Xotin-qizlar koylagining boyin qismi modaga qarab, doyimo o’zgarib brogan. Ayollar koylagining yoqasiga kashtalangan yoki bezatilgankeng tasma tikilgan. Buxoroda qimmatbaho kiyimlarga tilla ipda to’qilgan jiyak tikilgan. Ko’pchilik joylarda yoshi katta ayollar oddiy jun chilvir yoki qoramtir yo’l – yo’l mato parchasini jiyak qilib ishlatgan. O’tgan asr boshlarida bunday ayol koylaklari kam saqlangan. Turkiston o’lkasida dastlab shahlarda, keyinroq qishloqlarda tik yoqali yigirmochi koylak moda bo’la boshlagan. Qadimgi bichimda tikilgan “kurtai peshkusho” (old o’mizidan belgacha bo’lgan taqilma) koylakning boyin qismi belga qadar tikkasiga yirmochli bo’lgan. U yoqasiz bo’lib, koylak oldi tugma bilan qadalgan (avval ip tasma bilan bog’langan). XX asr 30 – yillarida peshkusho koylakni faqat keksa ayollar kiyishgan. Bu hildagi koylaklar kundalik hayotda iste’moldan chiqqach, uzoq payitgacha marosimlarda kiyilgan. XIX asr 90-yillarida baland tik yoqali (bo’g’ma) koylak urfga kirgan. Keyinchalik yoqaning yuqori qismi burmalab yoki mayda qatlab bezatilgan. Samarqandda XX asr 20-yillarga qadar shu hildagi yoqali koylaklar rusum bo’lgan edi.

Qadimiy koylak namunalari hozirgacha, asosan, qariyalar va yosh bolalar kiyimida saqlangan (*7,8-rasm ilovada*).

“Munisak” (munisak, mursak) ustki liboslarning o’ziga xos turidir. Uning bichimi an’anaviy to’n va koylakniki bilan deyarli bir xil bo’lsa-da, unda yoqa bo’lmaydi. Munisakning qo’ltiq ostidagi yon qismlari qat-qat yig’ilib turadi. Munisak hamma joyda ham kiyilmagan. U Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg’ona vodiysi va Xorazmda ham keng tarqalgan edi. Samarqand munisaklari (ayrim joylarda kaltacha deb nomlangan) boshqa joylardagi munisaklardan qo’ltig’i ostidagi burmalarning ko’pligi bilan ajralib turgan. Ular xatto, munisakning orqa qismiga ham o’tgan bo’lib, bunday bichim ayollar qomatini yanada nafis ko’rsatib, o’ziga xos ko’rk baxsh etgan (*9-rasm ilovada*).

Avvalari munisak toy, bayramlar libosi sanalgan hamda XIX asr oxirlaridan u aza libosi sifatida kiyilgan. Toshkentda esa u endi libos sifatida

emas, balki marhumaning tobuti ustiga yopiladigan yopinchiq sifatida xizmat qilgan. Shu tariqa u o'z vazifasini yoqotib, boshqa vazifa bajara boshlagan. L.Undareva liboslar vazifasining bu xilda o'zgarishini quyidagicha izohlaydi: "Liboslar ba'zi hollarda oddiy kundalik buyumdan diniy marosim buyumiga aylangan. Ularga moddiy narsa emas, g'oyaviy hodisa deb qaralgan. Liboslar shu tariqa ma'naviy qadriyat darajasiga ko'tarilagan. Muayyan marosimlar – bayram, urf – udum, oilaviy tantanalar ta'sirida liboslarga munosabat o'zgarib borgan".

Xar bir xalqning etnik o'ziga xosliklari xotin-qizlar an'anaviy liboslarining ajralmas qismi hisoblangan bosh kiyimlarida yorqin namoyon bo'ladi.

*Ayollar bosh kimi* - XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Orta Osiyoning boshqa hududlarida bo'lgani singari Samarqandda ham "do'pi" va "ro'mol" asosiy bosh kiyim sifatida kiyilgan. Ammo qadimshunoslik qazilmalari guvohlik berishicha, qadimda bu erda "dastor" (salla)ga o'xshagan bosh kiyimi kiyilgan. U "loki" deb yuritilgan. Loki bir necha qismdan tashkil topgan bo'lib, avval boshga zar iplar bilan tikilgan kultapo'shak deb nomlangan bosh kiyimi kiygan. U old gardish, chuqur va to'g'ri burchakli uzun, ikki tomoni ochiq qopchiqdan iborat edi. Qopchiqdan soch o'tkazilgan. Kultapo'shakning ustidan ro'mol tashlangan. Ro'mol ustidan o'simliklar va geometrik shaklli zarhal naqshlar tushirilgan peshonaband bog'langan. Peshonaband ustidan esa zar bilan to'qilgan shoyi rido ro'moli tashlangan. Xotin – qizlar boshlariga bitta yoki ikkta ro'mol yopinishgan. Bittasi bosh ustiga tashlab, ikkinchisini uning ustidan peshanaband ko'rinishida bog'lab qoyishgan. Rossiya O'rta Osiyoni bosib olgach, Samarqand va Buxoro chegara bilan ajratilgan. O'sha payitda Buxoro asosiy savdo, hamkorlik markazi bo'lib kelgan bo'lsa, keyin Turkiston general gubernatorligiga qo'shib olingan hududlar asosiy o'rinni egallagan. Samarqandning Toshkent bilan aloqasi kengayib liboslarida ham aks etib, endi Toshkent moda markaziga aylanganedi. Yangi bichimdagi liboslar shu erdan boshqa hududlarga tarqalardi.

XX asr boshlarida qiz va juvonlar orasida dumaloq do'ppi keng tarqalgan edi. Ungacha esa do'ppi qizlar bosh kiyimi hisoblangan. Ayollar do'ppisining sirti butunlay "o'rma", "xodo'zi" uslubida kashtalangan. Shuningdek, Samarqandda piltado'zi usulida tikilgan do'ppilar ham kiyilgan. Do'ppining tepasi qabarib turishi uchun gardishi bilan tepa qismi oralig'iga qattiq qog'oz yoki paxta pilik ("piltado'zi" nomi shundan) qoyilgan. Bu turdagi do'ppilar Boysun (Surxondaryo)liklarda ham uchraydi (*10-a.b.v rasm ilovada*).

*Buxoro va Samarqand an'anaviy zargarlik buyumlari* – Buxoro va Samarqand an'anaviy zargarlik buyumlarini oladigan bo'lsak ham hududi Toshkent zargarlik buyumlari singari shokilalarning ko'pligi, nafisligi bilan ajralib turgan. Taqinchoqlarni yasashda tilla, kumushdan, marjon, feruza, sadaf singari noyob va qimatbaho toshlardan foydalanilgan. Samarqand zargarlar yasagan buyumlar Buxoro zargarlik maktabiga xos uslub ko'zga tashlanadi. Bu – taunki, Buxoro qadimdan zargarlik san'atning yirik markazlardan biri bo'lib kelgan.

"Tilla-bargak", "tillaqosh", "gajak", "tavq", "marjon", "zebigordan", "nazigardon", "sirg'a", "bilakuzuk" kabi barcha turdagi taqinchoqlarni kelinlar bezak sifatida taqishgan. Shu bilan bir qatorda, u ayollarni turli xil balo-qazolardan, yomon ko'z, nazardan asrash vazifasini bajargan. Shunday taqinchoqlardan biri kelinlar peshonasiga taqiladigan tillaqosh bo'lib, u ma'danga xuddi qoshga o'xshatib shakl berish asosida yasalgan. Uning pastki qismi xuddi yaproq ko'rinishidagi shokildalardan iborat bo'lib, yuqori qismi nafis naqshlar bilan bezatilgan va toshlar qadab chiqilgan. Tillaqosh Buxoro, Samarqand tashqari, Toshkent, Qo'qonda ham yasalgan. Tillaqoshning tepa qismi naqshinkor bo'lmagan turi "bolo-abru" deb yuritilgan. D. Faxriddinovning ta'kidlashicha, ba'zan tillaqoshlarning yuqori qismi murakkab ko'p figurali gareldik kompozitsiyalardan iborat bo'lib, ularda antropomorf, zoomorf va o'simliksimon naqshlar tasviri ifodalangan. Vaqt o'tishi bilan shakllarning asl ramziy mohiyati o'zgarib, faqatgina chiroyli naqsh sifatida qarala boshlangan. Taqinchoqlardan yana biri tilla bargak bo'lib, u ham peshanaga taqilgan. Tilla

bargak bir-biriga ulangan kvadrat tangalardan iborat bo'lib, yuqori qismida marjon, feruza toshlar bilan bezatilgan gulsimon tangagachalar qatori joylashgan. Pastki qismini esa barg ko'rinishidagi mayda shokilalar to'ldirgan. Buxoro tillabarglari tuzilishi jihatidan Xorazm ayollarining "manglay tuzi" taqinchog'iga juda o'xshashdir.

Ko'pgina zargarlik buyumlari bejiz barg ko'rinishli bezaklar bilan bezatilganmagan. Qadim zamonlardan odamlar bargni hayot va tabiatning uyg'onishi ramzi deb tushunishgan.

Tillaqosh, chakkaga taqiladigan mohi tillo (bibishak) va gajak, zebigardon va nozigardon, barg, kundalsoz, halqa kabi sirg'alar, uzuklar, islimiy (shabak) usulida panjarasimon naqsh solingan bilaguzuklar va boshqa bezaklar ayollar liboslari to'plamiga kirgan. Mazkur zeb-ziynatlardan aksariyati, xususan, tillaqosh va zebigardon Toshkent, Samarqand va boshqa yirik shaharlarda tayyorlangan. Chakka va peshonaga taqiladigan yarim oy shaklidagi mohi tillo qadimiy ayollar sallasiga mo'ljallangan. Ushbu bezaklar shundan dalolat beradiki, mohi tilloda hosildorlik marosimlariga oid arxaik belgilar aks ettirilgan (*11-a.b.v rasm*).

Samarqand ayollarining ko'krakka taqiladigan zebigardon va nozigardon nomli taqinchoqlari ko'rinishidan Toshkent va Buxoro zargarlari esa asosan nozigardonni bezashda sirlash uslubidan foydalanishgan va islimiy naqshlarni to'q rang (asosan, ko'k rang)li fon ichiga tushirishgan. Bu esa nozigardonning jozibadorligini yanada kuchaytirilgan.

Kelinlarga nikoh toyida albatta "xafaband" va "murgak" (tavq) taqilgan. Tavq qoyma uslubda qator qilib ishlangan qushlar shaklidan iborat bo'lib, ularning boshi o'ng tarafga bitilgan. Qushlarning bu xilda turishning o'ziyoq diqatni jalb qildi. O.Suxarevaning ta'kidlashicha, Samarqandda tavq XX asr boshlarida paydo bo'lgan. Qoyma usul mahalliy zargarlarga xos bo'lmagan. Ammo, bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki tadqiqotchilar Samarqand yaqin (Panjikent)dan eramizdan avvalgi V asrga oid qoyma birinjdan ishlangan kichkina qush shaklidagi boyin taqinchog'ining bir bo'lagini topishgan. Zargar

ustalarning taqinchoqlarda qushlar tasvirini ifodalashi qadimdan xalqning ma’naviy dunyoqarashi bilan bog’liq bo’lgan (*12-a.b rasm ilovada*).

*Ayollar oyoq kimi* – Ayollar poyafzali erkaklar poyafzalidan deyarli farq qilmagan. “Mahsi” – uzun qo’njli, tavoni yumshoq poyafzal va charm “ kovush” ayollarning asosiy poyafzali bo’lib kelgan. Avvallari mahsi qora echki terisidan yashil saxtiyon tovonli qilib tikilgan. Bunday pishiq, mustahkam poyafzal “qayroqi” deb yuriltilgan. Uni mahsus mahalla (Kamuxttaron, Attoron, Santaroshon kabi)larda istiqomad qiluvchi mahalli kosiblar – kafshdo’zlar tikishgan. Ustki qismi bezatilga etiklar boy va amoldorlar kiyishgan (*13-a.b.v rasm ilovada*).

## 2.3 Buxoro va Samarqand an'anaviy milliy liboslari bichimlari texnologiyasi

Buxoro va Samarqand kiyimlarni bichish texnologiyasi o'ziga xos bichish usuliga ega bo'lib, bu usul o'zbek milliy kiyimlarining asrlar mobaynida shakllanib kelgan an'anaviy bichish texnologiyasiga asoslangan. O'zbek milliy kiyimlarini bichish ham uning ayrim elementlarni milliy kiyim taraqqiyotida tutgan o'rni va roliga qarab ikkiga bo'lish mumkin:

-. Milliy kiyim an'anaviy bichimining turg'unligini belgilaydigan yirik va o'zgarmas elementlari - bo'y, yeng va yon.

- Milliy kiyim an'anaviy bichimining turli xil mahalliy nusxalarini hosil qiluvchi mayda va o'zgaruvchan elementlari-yoqa, ko'krakburma, cho'ntak, raf va boshqalar.

O'zbek milliy kiyimlarining yirik qismlari va ularning kompozitsion tuzulishiga ko'ra an'anaviy bichish usullarining uchta turi ajratiladi:

- Bichimi to'g'ri chiziq bo'yicha ikki qismga bo'lish. O'zbek milliy kiyimlarini bichishning bunday an'anaviy usuli " *sharqiy osiyocha bichish usuli*" deb ataladi.

- Bichimni to'g'ri chiziq bo'yicha uch qismga bo'lish - bo'y, yon, va yeng. O'zbek milliy kiyimlarini bichishning bu an'anaviy usuli " *g'arbiy osiyocha bichish usuli* " deb ataladi.

- Bichimni ko'p qismli murakkab shakllarga bo'lish. Bu usul o'zbek milliy kiyimlarini bichishning oldingi ikkta an'anaviy usullarini yevropacha bichish usulida bichim to'g'ri va egri chiziqlar bo'yicha bir necha bo'laklarga ajratiladi. Bu usul kiyimlarni odam qomatiga juda moslashtirish maqsadida qo'llanilgan. Shuning uchun o'bek milliy kiyimlarini bichishning bu usuli " *yevropacha tipdagi bichish usuli* " deb ataladi [18].

Milliy kiyimlarning an'anaviy bichimlarida odam gavdasining aniq o'lchamlari hisobga olinmagan. Bunday bichimdagi kiyimlarni bichishda ajdodlarimiz o'lchovni barmoqlar yordamida amalga oshirishgan: bir qarich - bosh barmoqdan jimjiloq barmoqgacha bo'lgan masofa, to'rt barmoq - bosh

barmoqdan tashqari qolgan to'rt barmoq orasidagi masofa; bir en - bosh barmoqdan bo'g'imgacha bo'lgan masofa. Barmoqlar bilan o'lchaganda ular yirilgan holda, oralari ochilgan holda qo'llanilgan.

*Zardo'zi kiyimlarni bichishning Sharqiy Osiyocha usuli:* O'zbek milliy kiyimlarini an'anaviy bichishning sharqiy osiyocha usulida bichim to'g'ri chiziq bo'yicha ikki qismga - bo'y va yengga bo'linadi. Zardo'zi kiyimlar bichimining juda ko'plab mayda elementlarga bo'linishi ularda zardo'zi naqshlarni joylashtirish hamda tikish jarayonlarini murakkablashtirgan.Ularda ulama choklarning haddan tashqari ko'pligi ham zardo'zi naqshlarning sifatiga salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun milliy kiyimlarni an'anaviy bichishning sharqiy osiyocha usulida butun yuzasi zardo'zi naqshlar bilan qoplanadigan erkak va ayollarning ustki kiyimlari bichilgan. Sharqiy osiyocha bichish usuli (*16-rasm*) da yoritib berilgan.Bunday kiyimlarni odam gavdasiga birmuncha moslashtirish uchun zardo'zi belbog'lardan foydalanilgan.

*Zardo'zi kiyimlarni bichishning G'arbiy Osiyocha usuli:* O'zbekmilliy kiyimlarini an'anaviy bichishning g'arbiyosiyo chausulida bichish to'g'ri chiziq bo'yicha uch qismga - bo'y, yengvayongabo'linadi. Ayollar kiyimlari ham uch qismdan: pocha, xishtak va nefadan iborat bo'lgan. Erkaklarning kiyimlariga qaraganda ayollarniki torroq va ensiz bichilgan. Pocha, xishtak qimmatbaho matodan tikilgan bo'lsa, nefa esa oddiy astarlik matolardan bichilgan.Chunki ayollarning ko'ylagi juda uzun bo'lib, kiyimning yuqori qismi umuman ko'rinmagan. Erkaklar kiyimi ham ikki qismdan: pocha va xishtakdan iborat bo'lgan. Erkaklarning kiyimi tuzilishi bilan ayollarnikiga o'xshasa-da, pochasi va xishtagi kengligi bilan farq qilgan.G'arbiy osiyocha bichish usuli ular bichimida pochasi trapetsiya ko'rinishida, xishtak esa romb ko'rinishida bichiladi (*17-rasm*) da yoritib berilgan.

*Zardo'zi kiyimlarni bichishning Yevropacha usuli:* Zardo'zlik kiyimlarining zamonaviylashishi, bichimlarining birmuncha murakkablashuvi ularga ulanadigan elementlar sonining ortishiga olib keladi.Bu zardo'zlik

mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasida birmuncha o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Kiyimlar vazifasiga qarab tasniflangan: to'y-xashambop, madaniy marosimlarbop, uyichiga, ishgavayoshigaqarab - yoshkelinbop, kuyovbop, o'rtayoshdagi erkak-ayollarbop va keksa yoshdagilar uchun.

Kiyimlar ipak va yarim ipak  buxoro matolaridan tikilgan: adras, olacha, beqasam, karbos, banoras, atlas, qalami, baxmal matolaridan foydalanishgan.




*Аёллар устки куйлаги-бахмал матосидан*
*Бухоро*

*"Мохи-Хоса" Амалий санъати музейи буйича*

| Код | Детал номи | Детал сони |
|---|---|---|
| 1 | Олд ва орт бўлак | 1 |
| 2 | Енг | 2 |
| 3 | Орт тик ёқа | 1 |




*Аёллар ички куйлаги-пахта толали матосидан.*
*Бухоро*

*Бухоро Давлат бадиий-меъморий музейи-қўриқхонаси*

| Код | Детал номи | Детал сони |
|---|---|---|
| 1 | Олд ва орт бўлак | 1 |
| 2 | Ён бўлак | 2 |
| 3 | Енг | 2 |
| 4 | Орт тик ёқа | 1 |
| 5 | Хиштак | 2 |

## III. Loyiha qismi

### 3.1. Tenik topshiriq

Texnik topshiriq. Bu qismda loyihalashtirilishi rejalashtirilgan mahsulotning asosiy mo'ljali, texnik va taktik-texnik ifodalanishi, sifat ko'rsatkichlari va texnik ekonomik talablar o'rnatiladigan konstruktorlik hujjat. Bundan tashqari konstruktorlik hujjatining zarur bosqichlari va uning tarkibi va maxsus talablarni o'z ichiga oladi.

Texnik topshiriq quyidagilarni o'z ichiga oladi: libosning loyihalashtirilish sharoitining analizi, libos konstruksiyasiga qo'yiladigan talablar, ilmiy axborotning va patent hujjatlarining o'rganilishi, loyihalashtirilayotgan obekt uchun texnik-ekonomik talablar va sifat ko'rsatkichlarining belgilanishi, loyiha ishlab chiqilishining navbatdagi bosqichining mohiyati va konstrukorlik hujjatining tarkibi.

Shuningdek, texnik topshiriqda kiyim sanoatidagi zamonaviy yutuqlarga, kiyim turlarining oshishining, texnologiyasi va asbob uskunalarning taraqqiyot jarayonlari haqidagi dalillarga, moda yo'nalishi, iste'molchi ehtiyojlariga asoslabgan boshlang'ich ma'lumotlar, mahalliy va jahon bozorlarining holati o'z aksini topmog'i lozim.

*Loyxalanadigan kiyimga koyladigan talablar.* Iste’mol talablariga quyidagi talablar kiradi: Mahsulotga shaxsiy foydalanish vositasi sifatida qo'yiladigan gigiyenik, utilitar, ergonomik, ekspluatatsion, funksional va boshqa talablar.

Mahsulotga dizayn obekti sifatida qo'yiladigan shakl va tarkibning milliy liboslarga asoslanganligi .

Ishlab chiqarish va iqtisodiy talablarga quyidagilar kiradi: Loyihalashtirilayotgan libos ommaviy ishlab chiqarishga mo'ljallanmagan bo'lib, unga bunday talablarning faqat ayrimlari qo'yiladi. Bularga reallik va mantiqiylik talablari misol bola olad

*Ayollar mursagi haqida umumiy ma'lumot:* Ayollar ustki kiyimi – chopon. Buxoro viloyatida ayollar ko’chalik kiyimi. Ushbu kiyim kelinchaklar toy

marosimlarda kiyishga mo'ljallangan. Asosan zarbob liboslar qadimda zadogon oyila liboslariga mansub bo'lgan shu qatori bayramlarda toy marosimlarda ham kiyishga ruxsat berilgan, sababi zarbob to'nlarni faqatgina qirol oyilasigina tegishli bo'lgan. Qirol ruxsati bilan adiy halq uchun bayramlarda ruxsat berilgan.

Asosiy o'lchamlar 175-88-90.

Loyihalashtirilayotgan obekt qo'yilgan sifat ko'rsatkichlarining darajalanishi

*1-jadval*

| Sifat ко'rsatkich номи | | Rang |
|---|---|---|
| I daraja | II daraja | |
| Iste'molchi, shu jumladan: | Gigienik | 1 |
| | Ergonomik | 2 |
| | Ekspluatasion | 3 |
| | Funksional | 4 |
| | Estetik | 5 |
| Texnik-iqtisodiy | Unifikasiyalash va standartlashtirish | 3 |
| | Texnologik jixatdan qulaylik | 1 |
| | Iqtisodiy | 2 |

O'xshash va etalon modellar xarakteristikasi

*2- jadval*

| № | O'M haqidagi dastlabki ma'lumotlar | Struktura darajasi | O'xshash modellar | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | O'M-1 | O'M-2 | O'M-3 |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1 | Assortiment vazifasi | kundalik | ● | ● | ● |
| 2 | Mavsumi | yozgi | ○ | ○ | ○ |
| 3 | Yosh guruhi | O'rta yosh | ● | ● | ● |
| 4 | Kiyim yaratilgan muddat | 2015 | ○ | ○ | ○ |
| 5 | Tavsiya etilgan razmer va boylar | 170-88 | ● | ● | ● |
| 6 | Material artikuli | baxmal | ● | ○ | ○ |

● O'xshash model

○ Yarim o'xshash model

⊗ O'xshamaydi

O'xshash modellarning badiiy – konstruktiv xarakteristikasi tahlili

*3-jadval*

| № | O'M eskizi | Bichimi | Tashqi ko'rinishi tasviri | Asosiy detallar andazalari eskizi | Detal-lar spesifika-siyasi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1 |  | Milliy bichim | Chopon |  | 01<br>02<br>03<br>04 |
| 2 |  | Milliy bichim | Mursak |  | 01<br>02<br>03<br>04 |
| 3 |  | Milliy bichim | Koylak |  | 01<br>02<br>03<br>04<br>05 |

O’xshash modellardagi konstruкtiv tuzilishining tahlili

*4-jadval*

| № | Konstruktiv parametr nomi | Belgisi | Parametr qiymatlari | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | 1-O’M | 2-O’M | 3-O’M |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1. | Orqa boyin o’mizi kengligi | $О_{шсп}$ | 22 | 18 | 14 |
| 2. | Orqa boyin o’mizi balandligi | $О_{шсп}$ | 3 | 3 | 1.5 |
| 3. | Old boyin o’mizi kengligi | $О_{ш}$ | 22 | 18 | 14 |
| 4. | Orqa elka chizig’ining og’ish burchagi | $Ш_{сп}$ | 0 | 0 | 0 |
| 5 | Old elka chizig’ining og’ish burchagi | $Ш_{пр}$ | 0 | 0 | 0 |
| 6 | Konstruksiya balansi | $Ш_{и}$ | | | |
| 7 | Orqa kengligi | $Ш_{рук}$ | 40 | 38 | 38 |
| 8 | Eng o’mizi kengligi | $О_{шсп}$ | 55 | 52 | 38 |
| 9 | Old bo’lak kengligi | $О_{шсп}$ | 20 | 19 | 38 |
| 10 | Eng boshi kengligi | $О_{ш}$ | 32 | 28 | 38 |

O’xshash modellardagi konstruktiv va texnologik qo’shmchalar

*5- jadval*

| № | Qo’shimcha nomi | Shartli belgisi | Qiymati, sm | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | 1-O’M | 2-O’M | 3-O’M |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1. | Ko’krak chiziigi bo’yicha | П | 10 | 10 | 12 |
